

Mutolaa – insonga qanot bag'ishlaydi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N: 13 (67230)
2019-yil 1-aprel

Tong yulduzi

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi ISSN-2010-6092

GAZETA O'QING, DO'STIM!

(«Tong yulduzi» gazetasining qutlug' 90 yoshiga)

– Obunaga pul qayda?
To'ldiray kam-u ko'stim.
– Buncha ketasiz mayda,
Gazeta o'qing, do'stim.

So'zlarim-ku xolisdir,
Ko'proq bilim olishdir.
Majburlashdan olisdir,
Gazeta o'qing, do'stim.

Oldindasiz har bir dam,
Internetdan bir qadam.
Ildam bo'ling yana ham,
Gazeta o'qing, do'stim.

Minnat emas obuna,
Himmat emas obuna.
Qimmat emas obuna,
Gazeta o'qing, do'stim.

Xatosiz, yo'q nuqsoni,
Qiziqdir har bir soni.
Urrib qo'ydi to'qsonni,
Gazeta o'qing, do'stim.

O'qish hammaga farzdir,
Ixtiyor ham bir qarzdir.
Gazetadan bu arzdir,
Gazeta o'qing, do'stim.

Otabek ORTIQOV,
poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi
169-umumta'lim maktabining 9-«A» sinf o'quvchisi



USHBU SONDA:
MAKTABNING SOBIQ
BITIRUVCHILARI
SOVG'ASI
kitobxonlarni
quvontirmoqda

2-bet

**FIDOYILIK
NIMADIR,
DO'STIM?!**

3-bet

**«ERTAKCHI
BOLAJON» DAN**

**«Aralash
quralash» GACHA**

7-bet

Har bir rahbar o'zining shaxsiy kutubxonasidan o'zi ta'lim olgan maktab kutubxonasiga kitoblar sovg'a qilsa, bu yaxshi tashabbus bo'lib, kutubxonlikni rivojlantirish bilan farzandlarimiz tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shavkat MIRZIYOYEV



2-APREL — XALQARO BOLALAR KITABI KUNI

MAKTABNING SOBIQ BITIRUVCHILARI SOVG'ASI kutubxonlarni quvontirmoqda

Bundan bir necha ming yillar muqaddam barpo etilgan qadimiy obidalarning biridan «Yoshlar qalбини asrang» degan bitik topilgani haqida yaqinda bir manbada o'qib qoldim. Ayni kunlarda ham bu bitik o'z ahamiyatini zarracha yo'qotmagan. Shu birgina jumla bugun davlatimiz siyosati darajasiga ko'tarilgan yoshlarga bo'lgan e'tiborning ildizi ming yillik qadim qadriyatlarimizga tutash ekanligini anglatadi.

Ushbu da'vat bugungi globalashuv zamonida ijtimoiy tarmoqlar orqali kirib kelayotgan ma'naviy tahdidlar «ommaviy madaniyat» niqobi ostida ong-u tafakkurimizga, ruhiyatimizga dahl qilishga urinayotgan bir davrda farzandlarimiz tarbiyasiga yanada e'tiborliroq bo'lishimiz lozimligiga bir ishoradir, balki.

O'rinli savol tug'iladi: «Yoshlar qalbini qay tarzda asrashimiz kerak?» Bu savolga mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ishonchli, samarali va juda oddiy javobni berdilar: «Yoshlarimizni kutubxonlikka qaytarish orqali!»

Xalqimiz, xususan, yoshlarimiz orasida kutubxonlik madaniyatini shakllantirish, farzandlarimiz qo'li-

dagi uyali telefonlarni kitob bilan almashtirish maqsadida kutubxonlik musobaqalari o'tkazish, g'oliblarni qimmatbaho sovg'alar bilan rag'batlantirish borasidagi sa'y-harakatlar avj oldi. Taniqli davlat va jamoat arboblari, vazirlar, shoir va yozuvchilar o'zlarini tahsil olgan maktab kutubxonalariga kitoblar sovg'a qilishayotgani haqidagi xabarlar tez-tez quloqqa chalinayotgani ham barchamizni quvontiradi.



– Maktabimizga O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vaziri Sherzod Shermatov, Innovatsion rivojlanish vazirligi «Ta'lim tizimini rivojlantirish bo'limi» boshlig'i Jahongir Musayev, «Ko'kaldosh» o'rta maxsus islom bilim yurti mudiri Muhammadamin Nasriyev tashrif buyurishdi va kitoblar sovg'a qilishdi. Ular ushbu bilim maskanida tahsil olishgan ekan. Men barcha fanlardan a'lo baholarga o'qiyapman. Maktabni bitirgach, oliygo'hlarga kirib, xalqimiz kerakli inson bo'lib yetishsam, deyman. Buning uchun, albatta, ko'p mutolaa qilishim kerakligini anglab yetdim, – deydi poytaxtimizning Olmazor tumanidagi 22-umumta'lim maktabi o'quvchisi Abdulloh Zuhridinov.



Toshkent shahar, Yunusobod tumanidagi 9-DIUMning 10-«B» sinf o'quvchisi Ominaxon IKROMOVA:
– To'rtinchi chorakning ilk kunida maktabimizning sobiq bitiruvchisi – O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Abdulla Aripov tomonidan kutubxonamiz fondiga taqdim etilgan kitoblar bilan tanishdik. Maktabdoshlarim ushbu adabiyotlarni qo'liga olar ekan, ularni, albatta, o'qib chiqishga va kelajakda bilimli hamda dunyoqarashi keng inson bo'lishga va'da berishdi.



Olmazor tuman xalq ta'limi bo'limi mudirasi Zamira Azimboyeva tumandagi 102-sonli zaif eshituvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internati o'quvchilariga rang-barang kitoblarni taqdim etdi. Uchrashuv davomida mudira bolajonlarning qiziqishlari bilan o'rtoqlashar ekan, professional shaxmat bilan shug'ullanuvchi 6-«B» sinf o'quvchisi Marsel Shoyusupov bilan bellashdi.




Kuni kecha poytaxtimizning Shayxontohur tumanida joylashgan 59-umumta'lim maktabida bo'lib o'tgan tadbir ham aynan shu maqsadda uyushtirildi. O'zMTDP Toshkent shahar Kengashi raisi, Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashi deputati Otabek Jiyanboyev tashabbusi bilan o'zi tahsil olgan mazkur ta'lim maskani kutubxonasiga qirqaqa yaqin turli nomdagi badiiy adabiyotlar taqdim etildi.



Gulbahor Abdumajidova Andijon viloyati, Oltinko'l tumanidagi 16-umumta'lim maktabida a'lo baholarga o'qigan. Jonkuyar ustoz oliygohni tugatib, shu o'quv dargohiga ishga kelgan. Hozir ushbu ta'lim muassasasining rahbari. Yaqinda Gulbahor opa mazkur maktab kutubxonasiga badiiy kitoblar sovg'a qildi. Kutubxonadagi yangi kitoblar soni ko'payganidan kutubxonlar juda quvonishdi.

Xuddi kattalar kabi biz bolalarni ham bahs-munozaraga chorlaydigan mavzular bo'ladi. Men anchadan beri ba'zi bolalarda uchraydigan chapaqaylik odati haqida o'ylayman. Ba'zi tengdoshlarimiz chapaqay bolalarni masxaralashlarining guvohi bo'lganimda, ularga achinaman.

CHAPAQAYGA CHAPPA QARAMANG yoxud bir maqola ketidan tug'ilgan mulohazalarim



Bunday dilozor bolalarga gapirgim, tushuntirgim keladi. Ammo mening gapimga quloq solmay: «Voy mahmadona-yey», deya o'zimni ham kalaka qilishsa-chi, degan xavotirda ularga nasihat qilishdan tiyilaman. Shunday xayollar meni o'ylantirgan bir vaqtda sevimli gazeta «Tong yulduzi»ning 10-sonida «Qadrlagan qadr topadi yoxud sinfdoshlarga munosabatingiz qanday?» maqolasini o'qib qoldim. Unda yozilganidek, men ham tengdoshlarim bir-birlariga yaxshi munosabatda bo'lishlarini istayman. Maqolada ko'zoynak taqish, to'la vaznlik kabi masxaralashga sabab bo'layotgan jihatlarga qatoriga chapaqaylikni ham qo'shmoqchiman. Zero, chapaqaylik inson organizmi, xususan, miya faoliyati bilan bog'liq holat hisoblanadi. Eshitishimcha, chapaqaylarning boshqaruv faoliyati miyaning chap qismida joylashgan bo'ladi, xolos. Bu esa masxaralashga arziydigan holat emas. Menimcha, hech kim ataylab chap qo'lda yozmaydi. Maktabimiz ruhshunosining aytishicha, bu toifa bolalarni o'ng qo'lda yozishga majburlab ham bo'lmaydi. Bu ularning nutqi va fikrlashiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sabab, ba'zi tengdoshlarimga shuni aytmoqchiman, sinfdoshlar yoki do'stlarimizning ustidan kulishdan avval, o'zimizni uning o'rniga qo'yib ko'raylik. Noo'rin tahqirlashimiz sabab do'stimiz ne ahvolga tushishini tasavvur qilaylik!

Shahzoda TO'LQINOVA,
poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi
255-umumta'lim maktabining
7-«A» sinf o'quvchisi



FIDOYILIK NIMADIR, DO'STIM?!

Hayotingizdagi qiziqarli voqealarni gapirib berish yoqimli, eshitish ham maroqli bo'ladi, to'g'rimi? Hozirgi zamonda e'tibor tortuvchi biror hodisa yuz bersa, shu zahotiyoq ijtimoiy tarmoqlarga tarqab ketadi. Lekin men shu kunlarda shunday holatlarga guvoh bo'ldimki, ular haqida sizga gapirib bermasam bo'lmaydi. Demak, boshladim.

USTOZINGIZNING UYINI BILASIZMI?

Mahalliy gazetaimiz topshirig'i bilan chekka qishloqda joylashgan maktabga tadbirni yoritish uchun yo'lga tushdim. Yetib borgach, maktab yoshlar yetakchisiga o'zimni tanishtirib tursam, faollar zalining kiyinish xonasidan shovqin eshitilib qoldi. Yetakchi aka bilan o'quvchilarni chaqirib, sababini so'radik. Ma'lum bo'lishicha, tadbirda Hazrat Navoiy rolini ijro etgan o'quvchi bemor sifatida shohona o'rinda yotishi kerak ekan. Ammo o'quvchi oyoq uzatadigan tomonda ularning sinf rahbari yashar ekan. U: «Ustozimning uyiga oyoq cho'zmayman!» deb qat'iy turib olibdi. Oxiri Navoiyni ikki do'sti ushlab turadigan bo'ldi. O'quvchining so'ngi so'zi bunga majbur qildi: Hazrat Alisher ustoz hurmatini boshiga qo'ysa-yu, men bunga munosib bo'lmasam, vijdonim qiynaladi. Bobom har doim: «Otang o'tirgan uyning tomiga chiqma, ustozingning uyiga oyoq uzatma, onangga baland ovozdagi gapirma, uyat bo'ladi», deb tayinlaydilar...

ONASINING ISMINI BILMAGAN BOLAKAY...

Navro'z saylida xayriya aksiyasi doirasida yutuqli o'yin o'ynalayotgandi. Yoshlar vakili sifatida meni kuzatuvchilar qatoriga qo'shib, sahnaga chiqarib qo'yishdi. Qizg'in o'yin ikki soatga davom etdi. Tomoshabinlar safi ortib borayotgan paytda onasidan adashib qolgan 10 yoshlardagi bolani olib kelishdi. Bunday holatda eng yaxshi chora – sahnadan e'lon berish. Sal avval ikki qizaloq ham shu tariqa ota-onasiga topshirilgandi. Haligi boladan onasining ismi so'ralganda, aytib bera olmadi. Avvaliga hayajon va qo'rquvdan onasining ismini unutgandir, deb o'yladik. Yo'q, u chindan ham bilmas ekan. Sababi, boshlovchi o'yinni to'xtatib, bolani savolga tutganida oshkor bo'ldi.

- Dadangiz onangizni nima deb chaqiradi?
- Mening ismim bilan – Kamol, deb.
- Yo'g'-e, unda dadangizning ismini ayting...
- Bilmayman. Bizda otaning, tog'a-amakilarning ismi aytilmaydi.

Bu usul ish bermagach, IIB xodimlari yordamida bolaning onasini topdik. Shu voqeadan so'ng Cho'lponning «Kecha va kunduz» romanida keltirilgan sharqona odatlarning hali-hanuz saqlanib kelayotganligidan shodlandim.

YAXSHILIK

Yaqinda shaharda bir o'smirmni ko'rib qoldim. Qo'lida yelim xalta. Ko'cha-ko'yidagi qog'oz parchalarini terib yuribdi. Ertasiga uni mahallamizda uchratdim. Tashqi ko'rinishidan muhtoj bolaga o'xshamaydi. Qiziqishim ortib, uni to'xtatib savolga tutdim. Bolakayning javobini siz ham eshiting-a:

– Ota-onam o'qishim uchun barcha sharoitlarni yaratib bergan. Maktabda a'lochiman. Bilasizmi, birinchidan mana shu qog'oz parchalarini tozalash uchun onam tengi ayollarning yetti bukilishiga to'g'ri keladi. O'z mahallamiz, shahrimiz ozodaligi bizga bog'liq. Ikkinchidan, ushbu qog'ozlar uchun pul berishar ekan. Bir oydan beri yig'ib, sotayman. Mahallamizda uyda ta'lim oluvchi imkoniyati cheklangan o'quvchi yashaydi. Oilasi o'rtamiyona. U esa rassomlikka qiziqadi. Bo'yoq, qog'ozlarini men olib beraman. Shahardagi qo'shimcha mashg'ulotim tugagach, yo'l-yo'lakay qog'ozlarni terib boraman...

Kimlar uchundir bu kulgili, uyatli mashg'ulotdir. Lekin qo'limizdan kelgan ishni bajarmasak, atrofimizdagi bizning ko'magimizga muhtoj insonlarga yordam qo'limizni cho'zmasak, tabiatning sofligini, musaffoligini asrashga o'z hissamizni qo'shmasak, qanaqasiga yetuk avlod bo'lamiz?! Yoshlar ittifoqi sardorlari feysbuk, instagramda qilgan tariqcha ishini filday maqtanishdan, telegramda shiorlar tanlovini o'tkazishdan bo'shamasa, «Yoshlar – kelajagimiz bunyodkori!» degan muqaddas shior Ittifoq xonalarda osilib qolib ketaveradi.

Siz ham nimadir qila olasizmi? Unda og'izda emas, amalda harakatni boshlang. Sizning amalingiz ijtimoiy tarmoqlarda maqtalishi, layk to'plashi shart emas. Bir o'ksik ko'ngilni shod etsangiz, shuning o'zi fidoyiligidir, do'stim.

Otabek BAKIROV,

Toshkent viloyati, Angren shahridagi 27-umumta'lim maktabining 11-sinf o'quvchisi

VATAN, SEN BIZLARGA ULKAN QO'RG'ON SAN

Vatan, sen bizlarga ulkan qo'rg'onsan, Bag'rikeng, yashnagan nurli bo'stonsan. Quchoq'ingda o'tar kunim qadrli, Baxtlarga burkangan nurli makonsan...

Bu misralar Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus shahridagi Ibroyim Yusupov nomli qoraqalpoq tili va adabiyotiga ixtisoslashtirilgan maktab-inter-



natining 7-«A» sinfida tahsil olayotgan Muyassar Boltaboyevaning «Ayazyi izdoshlari» tanloviga yozgan she'ridan olingan. Ushbu maskanda Muyassar singari ijodga mehr qo'ygan o'quvchilar juda ko'p. Axir bu yoshlar Ibroyim Yusupovdek sevimli adibga munosib bo'lishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'yishgan-da.

Maktab direktori F. Palimov, direktor o'rinbosari Zulfiya Satbayeva boshchiligidagi ilgama, ijodga

chanqoq bolalarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, ularni ijod olamidagi yangiliklar bilan yaqindan tanishtirish maqsadida tez-tez adabiy uchrashuvlar o'tkaziladi. Jumladan, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi G'ayrat Majid, Rustam Musulmon singari ijodkorlar bilan bo'lgan uchrashuvlarni o'quvchilar uzoq eslab yurishadi.

Yaqinda Qoraqalpog'iston xalq shoiri Toliboy Kabulovning 80 yillik yubileyi keng nishonlandi. Maktab-internatda «Ayazyi izdoshlari» deb nomlangan iste'dodli o'quvchilarning tanlovi tashkil qilingan bo'lib, bu bellashuv ijodkor o'quvchilarni kashf qilish va ularni tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Ushbu tanlov poeziya, proza, publitsistika va ifodali o'qishga yo'naltirilgan. Yana bir xabar: o'tgan yili ushbu tanlovning respublika bosqichida 10-sinf o'quvchisi A.Smaylov, «Kamalak» yo'nalishidan 6-sinf o'quvchisi G.Jasildikovalar 1-o'rinni egalladi.

Qoraqalpog'istonlik ijodkor tengdoshlarining yutuqlari bizning ham havasimizni ortirdi. So'zimiz so'ngida esa qoraqalpoq xalqining urf-odatlarini-yu umrboqiy an'alariga munosib bo'lib yetishayotgan, bu kabi ilmga chanqoq o'quvchilarga ijodiy barkamollik tilaymiz.

Kitob tuganmas xazina, sadoqatli do'st, ziyo chashmasidir. Kitob insonlarni ezgulik sari yetaklaydi. Zero, u bor ekan, hayotimiz nurlarga to'la.

TUGANMAS XAZINA

Muhtaram Prezidentimizning kitob haqidagi Farmonlartiga binoan boshlang'ich sinf o'quvchilari ishtirokida «Kitobim – o'fotobim» tadbiri o'tkazildi. Tadbirda o'quvchilar «Tez aytish», «Tez o'qish», «Ovozli o'qish», «Topishmoqlar topish», «Ertaklar asosida sahna ko'rinishlari tayyorlash» kabi shartlarni bajarishdi. Haftalikda boshlang'ich sinf o'quvchilari faol ishtirok etishdi.

G. SHOKIROVA, Farg'ona viloyati, O'zbekiston tumanidagi 1-umumta'lim maktabi kutubxonachisi



Shuningdek, 8-«B» sinfdan Baxtigul Jaqsilikova, 7-«A» sinfdan Gulxumor Jaqsilikova, 8-«A»dan Murat Jumaboyev kitobsevar o'quvchilardan sanaladi. Quvonarlisi, ularning «Eng yosh kitobxon» tanlovida bir necha marta qo'llari baland kelgan.

Ozoda TURSUNBOYEVA

HUNARNI HUNARLIDAN O'RGAN

– Senga qoyilman, – debdi shogird Hunarga. – Yog'ochga til kiritgan ham sen, misga jon ato qilgan ham sen, oltin-kumushni ming maqomga solgan ham sen. Bunday mohirlikka qanday erishgansan?

– Shuniyam bilmaysanmi? – debdi Hunar. – Mehnat, Zehn hamda Ishtiyok bilan do'st tutinish orqali erishganman...

amaliy san'ati turlaridan biri sanaladi. Arxeologik topilmalar va tarixiy manbalardan ma'lumki, Markaziy Osiyo xalqlari orasida qadimdan I-II asrlardan qoldirgan zardo'z liboslar, badiiy buyumlar keng tarqalgan. XVII asrda yashagan samarqandlik shoir Fitratning asosiy kasbi zardo'zlik bo'lgan. U matolarga zardan ajoyib kashtalar tikkan. XIX–XX asrlarda zardo'zlikning o'ziga xos maktabi yaratilgan. Zardo'zlik san'atining yirik namoyandaligidan biri buxorolik zardo'z usta No'mon Aminovning Toshkentdagi xalq amaliy san'ati muzeyi, «Go'ri Amir» maqbarasidagi hamda Samarqandning 2500 yilligiga bag'ishlangan tasvirlari barchani hozirgacha maftun etib kelmoqda.



Poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 324-umumta'lim maktabining 5-«A» sinfida mehnat ta'limi darsi boshlandi. O'qituvchi Shoira Abdullayeva o'quvchilarni zardo'zlik san'ati tarixiga oid ma'lumotlar bilan yaqindan tanishtirarkan, yuqoridagi rivojotini ham so'zlab berdi.

Darhaqiqat, Markaziy Osiyoda zardo'zlik juda qadimdan rivojlanib kelayotgan xalq

Hunarning barcha boylik va martabalaridan a'loroq, ulug'roq ekanligi, hunarni astoydil sevgan, uni qunt bilan o'rgangan, ulug'lagan kishi hayotda o'z o'rnini va yo'lini, albatta, topadi, degan g'oyaning mazmun-mohiyati mashg'ulot davomida amaliy misollar yordamida ochib berildi.

Nodira NAZAROVA

Kitob insoniyatni ezgulikka, ma'rifatga chorlaydi. Muqaddas kitoblarda «Ilmni egallang, ilm sahrada do'st, yolg'iz damlarda rahbar, qayg'uli damlarda yo'ldosh, dushmanlarga qarshi kurashda qurol, odamlar orasida zeb-u ziyatdir», deya e'tirof etilgan.

«FARZANDNOMA» NI O'QIDINGIZMI?

Kitobni qo'limizga olgandagi zavq, huzur va ko'ngil xotirjamligini hech qayerdan topa olmaymiz. Mutolaa jarayonida kitob qahramonlaridagi yaxshi fazilatlarini o'zimizga singdirib boramiz va ularga havas bilan qaraymiz.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi a'lochisi Obiddin Mahmudovning «Yilning eng yaxshi kitobi» VII Respublika tanlovida 1-o'rinni egallagan «Farzandnoma» audiokitobi ham ana shunday asarlardan sanaladi.

Ushbu asar mutolaa jarayonida kitobxonni qayta-qayta mushohadaga chorlashi, undagi yashirin, hikmatli so'zlar, mitti hikoyat va rivoyatlar beixtiyor kishini o'z hayot yo'lga teran razm solishga, vaqtni behuda sarflamaslikka o'rgatishi, o'zi tug'ilib o'sgan ona yurtiga muhabbat, sadoqat tuyg'usini tuydirishi, ma'naviy-ma'rifiy, diniy qadriyatlarimizning yuksalishiga xizmat qiladigan jihatlarni o'zida jamlagani bilan qadrlidir.

Kitobdagi «Munosib ota-ona, odobli farzand – baxtli oila», «Ezgu niyat – ezgu amal», «Yoshlikni g'animat bil», «Noto'g'ri tarbiya – qiyshiq yasalgan ko'za», «To'g'ri bo'lgan o'g'ri», «Erka o'g'ilning fojiasi», «Haddingdan oshma!», «Yorug'likka intilgan zulmat», «Otangga rahmat» yoki «Barakalla» mavzularidagi samimiy suhbatlar, hayotiy voqealar, rivoyatlarni o'qib, o'zingizga tegishli xulosalar chiqarasiz. Biz zukko o'quvchilarimiz bu kitobni o'zlarining eng noyob qo'llanmasi sifatida asrab-avaylaydilar, deb ishonamiz.

Gulchehra KARIMOVA, «Nuroni» jamg'armasi Respublika Boshqaruvi huzuridagi «Faxriy ijodkorlar» guruhi a'zosi

Kuni kecha fan olimpiadasining shahar bosqichi Olmazor tumanidagi 224-umumta'lim maktabida bo'lib o'tdi. Poytaxtimizdagi barcha tumanlardan har bir fandan faxriy o'rinlarni egallagan 3 nafar ishtirokchi o'z maktab va tumani sharafini himoya qildi. Shunday sharaflini musobaqaga qatnashish baxti menga va 7 nafar maktabdoshimga ham nasib etdi.

MEN HAM KUCHLILAR QATORIGA KIRDIM

Tayyorgarlik jarayonida maktabimiz rahbari Gulnoza opa Ergasheva va ustozlarimiz hamda Shayxontohur tumani xalq ta'limi

maxsus qo'shimcha o'quv darslari tashkil qilgani bizga yanada o'z ustimizda ishlashga imkon berdi.



bo'limi mudiri Faxriya Shirova o'quvchilarga barcha sharoitni yaratib, o'z yordamlarini ayashmadi. Ayniqsa, ona tili va adabiyot fani metodisti Ra'no opa hafta davomida

Olimpiada haqqoniy bilim maydoni. U shaffof tarzda o'tkazildi. Eng quvonarlisi, maktabimiz o'quvchilari yaxshi natijalarga erishdi.

Maktab rahbarimiz olimpiada ishtirokchilari va ularga beminnat bilim bergan ustozlarimizni Samarqand shahriga sayohatga yubormoqdalar. Biz bundan juda xursandmiz.

Otabek ORTIQOV,
poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 169-umumta'lim maktabining 9-«A» sinf o'quvchisi

QIZLAR BELLASHUVI BO'LDI

Yaqinda sinfimizda «Mitti malika» deb nomlangan tadbir bo'lib o'tdi.



Unda dugonalarim bilan ishtirok etdik. Tadbirda 14 nafar qizlar 6 ta shart bo'yicha bellashdik. Shartlarni katta qiziqish bilan bajardik. Menga yoqqan vazifalardan biri pazandalik yo'nalishi bo'yicha bo'ldi. Unga ko'ra, barchamiz o'zimiz biladigan bahoriy salatlarini tayyorladik. Tadbir davomida quvnoq raqslar ham ijro etildi. Bellashuv bizni topqirlikka va hozirjavoblikka chorladi. Tadbirlarimizni qiziqarli va maroqli o'tishida sinf rahbarimiz Sanobar opa Quryozovaning xizmatlari katta bo'ldi.

Dilnozaxon SHOKIRBOYEVA,
Xorazm viloyati, Yangiariq tumanidagi 19-umumta'lim maktabining 1-«A» sinf o'quvchisi

Lesson 13

MY ENGLISH TEACHER

She is very kind,
She is very skilled.
She is very clever,
She is my English teacher.

She resembles to the sun,
She is very fun.
She lets play pun,
She is my English teacher.

I will be English teacher, too
I resemble to you,
I will as you as clever,
My English teacher.



Dilrabo MAVLONOVA,
The pupil of school № 45 in Zam-in district, Djizzakh region

FUNNY JOKES

Lost

Little girl to policeman: Please, sir will you take my little brother home? He has lost
Policeman: Why can't you take him home?
Girl: Because I'm lost too.



Who is this speaking?

Voice over the telephone: Tommy Hagan won't be in school today

Teacher: Who is speaking, please?

Voice: This is my father speaking.

A hundred dollar

Teacher: Why are you late?

Student: There was a man who lost a hundred dollar.

Teacher: That's nice. Were you helping him look for it?

Student: No, I was standing on it.



Attention

Patient: Doctor! You've got to help me! Nobody ever listens to me. No one ever pays any attention to what I have to say.

Doctor: Next please!

Collected by **Gulchehra UBAYDULLAYEVA,**
The student of Uzbekistan State University of World Language



A STORY FLOWER

(English story)

Once, in the early spring, two seeds were dropped not far from a river. One grew into a daisy, with soft white petals and a sunny yellow middle. The other grew into a rose, sweet and graceful, with petals the color of a summer sunset. They grew together, and were the best of friends.

One summer day, the rose said to the daisy, «I would like to see the world. I want to travel to faraway places, and see what it's like where other flowers grow».

«Why would you want to do that?» the Daisy asked. «I like it right here by our river. It's beautiful and peaceful, just the right place for two flowers». «I suppose you're right», the rose sighed. «Besides, I couldn't leave you». And the two friends promised that they would never leave their place on the river bank.

But the very next day, a child was walking down to the river, and spied the rose's pink petals. «Oh, what a lovely flower», she said. «I'll take it home and give it to mother». And she walked over and plucked the rose right out of the ground.

The daisy watched as her friend was taken away, unable to do anything to help. And she wept. Very few have ever heard a flower cry, and those who have say that there is no sound in the world more sad.

The child brought the flower home, where it was loud and busy and not at all fit for a little rose. The mother put the rose in a vase, and after a few days, that pretty little rose wilted, as flowers who have been taken from the ground do.

The daisy knew it was impossible that her friend would ever come back, but that didn't stop her from hoping. And there she sat, waiting and weeping all through summer, and right on into the fall. And that little flower waited right up until winter, when, exhausted and cold, she curled up and wilted. The daisy and the rose were reunited at last.

And so, I beg you, if you see two flowers growing sweetly together, do not pick one and put it in a vase on your table, but leave it there. Because, even for flowers, life is better when you have someone by your side.





BIZGA BERASAN TA'UM

Kitobim – oftobim,
Senga qilaman ta'zim.
Sendan bilim olaman,
Sen bilan yorug' yuzim.
Kitobim – oftobim,
Bizga berasan ta'lim.
Seni asrab-avaylab,
Qo'lga olar muallim.

Sevinch ABATOVA,
Qoraqalpog'iston Respublikasi,
Xo'jayli tumanidagi 5-umumta'lim
maktabining 3-sinf o'quvchisi



CHAROS

Mening singlim bor – Charos,
Ko'zlari misli gilos.
So'zlari dona-dona,
Bo'lay unga parvona.
Mehrim oshib biryona,
U dunyoda yagona.

Sarvinoz ABDUXOLIQOVA,
poytaxtimizning Sergeli
tumanidagi 300-DIUM ning
7-«V» sinf o'quvchisi



TIPRATIKAN

O'rmondagi Tikanvoy,
Izlab yurar xoli joy.
Hujum qilganlarga u,
Tikan sanchar hoynahoy.

Xavf sezgan hamono,
Koptok bo'lar shu asno.
Ayyor Tulkiposhsha ham,
Unga tegolmas hatto.

Furqat HAYDAROV,
Qashqadaryo viloyati, Yakkabog'
tumanidagi 5-umumta'lim maktabi
o'quvchisi

Ajoyib kunlarning birida Qobiljon, Odiljon, Sobirjon ismli bolalar uylari yaqinidagi sport maydonchasida qiziqarli o'yin o'ynayotgan edi. Ularning quvnoq harakatlarini yoshi ulug' bir onaxon chetdan maroq bilan kuzatib turardi.

Shu payt keksa onaxonning e'tiborini «tak chto», «davay», «o'key», «konechno» kabi so'zlarni qayta-qayta aytayotgan Qobiljon ismli bolakay o'ziga tortdi. O'yin tugagach, onaxon Qobiljonni asta yonlariga chaqirdi:

– Bolam, sen juda aqli yigitga o'xshaysan. Chet tillarini bilganing yaxshi. Ammo bu tariqa so'zlashish, ona tilimizga boshqa millat so'zlarini qoshib gapirish durust ish emas.

– Men doim o'rtoqlarim bilan shunday so'zlashaman, buning nimasi yomon ekan? – dedi bolakay e'tiroz ohangida.

QOBILJON XATOSINI TUSHUNDI



– Bolaginam-ey! Bu odating ona tilimizga, jondan aziz elimizga hurmatsizlik hisoblanadi. Bu haqida bobomiz Hazrat Alisher Navoiy «Tilga ixtiyorsiz – elga e'tiborsiz» deganlar. Ona tilimizga nisbatan befarq bo'lishing, so'zlashayotganda turli tillardagi so'zlardan foydalanishing o'zbek tilimizning jozibasini yoqotadi. Buni sen yaxshi tushunib olishing kerak.

– Tushundim, buvijon. Endi aslo chet tilidagi so'zlarni ona tilimiz bilan aralashtirib so'zlamayman.

– Barakalla, bolam, endi uyingga kechikmay boraqol, – deya onaxon ham maydonchani tark etdi. Qobiljon esa bu suhbatdan o'ziga kerakli xulosani chiqarib oldi.

Marjona MURODULLAYEVA,
Navoiy viloyati, Zarafshon shahridagi
12-umumta'lim maktabining
9-«A» sinf o'quvchisi

DONISHMAND BOBO ERTAKLARI

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda)

Xudoyberdi TO'XTABOYEV, O'zbekiston xalq yozuvchisi

Qadim zamonda bir podsho bo'lgan ekan. Bir qarashda boshqa podsholarga o'xshab ham ketar ekan, goho o'xshamay ham qolar ekan. Bir qarasangiz, saxiy, qo'li ochiq ekan. Yana bir qarasangiz, mulkiga bir so'mlik ziyon yetkazgan

kishini dorga osishga buyurar ekan. U ko'z ko'rib, quloq eshitmagan g'alati-g'alati tomoshalar uyushtirar ekan. Qiziq, o'ng tomonida o'ng vazir, chap tomonida chap vazir o'tirar ekan. Tomoshani hammalari kuzatib o'tirar ekan. Podsho «Zo'rl» desa, ikki vazir birdan o'rnidan turib:

– Zo'rl!
– Zo'rl! – deb hayqirishar ekan. Agar podshoning ko'ngli to'lmasa, ikki vazir:
– Xom!
– Xom! – deb baqirishar ekan.


Podsho bir kuni saroy hovlisiga bir arava toshni to'ktiribdi. Atrofiga saroy allomalarini to'plab, «Qani, shuni baholanglar-chi. Bu nimaga o'xshaydi?» deb so'rabdi. Saroybon o'rnidan turib:

– Taqsir, bu bir uyum tarvuzga o'xshaydi, qarang, birisi xom, kichkina, birisi pishgan, katta, – debdi.

– Xom! – deb hayqiribdi podsho. Unga qo'shilib vazirlar ham «G'o'r», «Chala», deb javob qaytarishibdi. Yana bir kishini chaqirib kelishibdi. U podshoning askarlaridan biri ekan. «Qani, buni nimaga o'xshatasan?» deb so'rashibdi undan ham.

– Jang bo'lib o'tgan maydonga o'xshaydi, olampanoh! Katta-kichik kallalar kesilgan, o'shalar dumalab

yotibdi, – debdi. Yo'q, bu javob ham podshoni qoniqtirmapti. Yana bir lavozimdagi kishini chaqirib kelishibdi, keyin boshqasini chaqirishibdi. Biri tikilib turib: «Dehqonlar uy qurayotganda loydan guvala yasashadi, bir arava guvala shu



SINCHKOV CHO'PON

(Ertak)

yerda turganga o'xshaydi», debdi. Yo'q, bu javob ham podshoning ko'nglidagi javob bo'lmabdi. Bu savol-javoblar yurtga ovoza bo'libdi. Hamma o'z fikrini bildirishni istarmish-u, saroyga borishga jur'ati yetmay, yarim yo'ldan qaytarmish. Bu ovoza yoyilib-yoyilib podshoning cho'poniga ham borib yetibdi. Cho'pon yigit kelibdi. Sinchiklab tikilibdi va o'ylab turib o'z fikrini bildiribdi.

– Shahanshohim, – debdi yigit, – to'kilgan bir arava tosh faqat toshlarning o'ziga o'xshaydi, debdi. Hamma hayron bo'libdi. Shunda yigit dadil turib: «Har bir narsa o'z asliga o'xshaydi. Asli tosh toshning o'ziga o'xshaydi», debdi. Yigitning bu so'zi ko'pchilikka ma'qul bo'libdi.

«Chindanam, har bir narsa asliga o'xshaydi», degan gap hammayoqqa tarqalib ketibdi. Yigit chinakam sinchkov ekan. U podshoning qo'ylari vazirning qo'ylariga aralashib ketsa, bu podshoniki, bu vazirniki, deb bimalol ajrata olar ekan. Ba'zi bir kishilar bozordan ot olmoqchi bo'lsa, shu yigitni boshlab borar ekan. Sen sinchikov yigitsan. Bizga ot tanlab ber, deyishar ekan. Yigit otlarga diqqat bilan tikilib:

– Bu ot uloqqa yaramaydi. Bu ot katta yuk tortishga yaraydi. Bu ot poygalarida o'zib ketadi, – degan gaplarni ham aytib yurar ekan. Shunday qilib, ko'pchilik oldida yigitning «Har bir narsa o'z asliga o'xshaydi»,

degan gapi hikmatga aylanib, odamlar bu so'zni tez-tez takrorlaydigan bo'libdi. Podsho yigitni huzuriga chaqiribdi.

– Sen sinchkovlikni kimdan o'rgangansan? – deb so'rabdi.

– Otamdan, – debdi yigit.

– Yana kimdan o'rgangansan, – deb so'rabdi podsho.

– Bobomdan, bobom esa bobosidan o'rgangan, – debdi. Shundan keyin yigitning aql bilan farosatni qo'shib ishlatgan so'zi, ya'ni har bir narsa o'z asliga o'xshaydi, degani ma'qul bo'lib, podsho uni saroyga xizmatga taklif qilibdi va qizlaridan birini unga nikohlab beribdi.

(Davomi bor)

BAHOR KABI RANG-BARANG TO'RT KUN

Aziz qizlarjon! Samarqand shahrida to'rt kun davomida bo'lib o'tgan «Qizlarjon» o'quvchi-qizlar sammiti hech biringizni bee'tibor qoldirmagan bo'lsa kerak?!

Mazkur anjumanda ishtirok etgan dugonalaringizning boy taassurotlari bilan qiziqayotgan bo'lsangiz, ajab emas.

Jizzax shahridagi «Umid» IDUMning 11-sinf o'quvchisi Madina Namozova

bizga quyidagilarni so'zlab berdi:

– Sammitda «Innovatsiya va menejment» yo'nalishining «Eng yaxshi jamoa sardori» nominatsiyasi g'olibi sifatida ishtirok etganimdan xursandman. Menga AQSHlik trener Laura



Volf, «O'zbekkino» Milliy agentligi aktyori Javohir Zokirov, falsafa fanlari doktori Jamila Shermuhammedovaning mahorat darslari juda yoqdi. Insonning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishga, zamonaviy ayol qiyofasini yaratishga, qizlarning hayotda o'z o'rnini topishga yordamlashadigan treninglardan o'zimizga tegishli xulosalar chiqarib oldik. Yana bir ishtirokchi – Toshkent viloyati, Yangiyo'l shahridagi 10-umumta'lim

maktabining 10-sinf o'quvchisi Xonzoda Ahmedova esa bizga anjuman doirasida o'tkazilgan ajoyib yarmarka haqida maroq bilan so'zlab berdi:

– Registon maydonida tashkil etilgan yarmarkada namoyish etilgan dugonalarim yaratgan zargarlik, zardo'zlik buyumlari, liboslar va qo'g'irchoqlar barchaning havasini keltirdi. Namanganlik Mushtariy Muhammadaliyeva hamda xorazmlik Nargiza Karimovaning qo'l mehnati mahsulotini ko'rib, ko'zimiz quvnadi. Surxondaryolik tengdoshimiz Termiz shahridagi 13-umumta'lim

maktabining 8-sinf o'quvchisi Sarvinoz Muhammadiyeva ham ulardan qolishmadi.

Barcha qizlar tashabbuskorligi, faolligi uchun Xalqaro INHA Universitetining sertifikatlarini qo'lga kiritishdi.

Shuningdek, sammit qatnashchilari, bo'lajak tadbirakor-u olimlar qizlar «Samarqand – Buxoro ipak gilam» hamda «Amin invest» qo'shma korxonalari, «Dilimax» mehmonxonasi, «Bibixonim» o'quv markazi faoliyatini bilan tanishdilar.

Mahmuda VALIYEVA, Dilorom ABDURAHMONOVA

Qadrli o'quvchilar, orangizda oynayi jahon orqali namoyish etiladigan «Aralash-quralash» nomli bolalar hajviy ko'rsatuvini maroq bilan ko'rmaydigan bolalar topilmasa kerak. Ushbu ko'rsatuvning sho'x-shaddod, iqtidorli qahramonlaridan biri Farangiz Hikmatullayeva bilan yaqindan tanishishni istaysizmi?

«ERTAKCHI BOLAJON» DAN

Farangiz poytaxtimizning Yakkasaroy tumanidagi 160-umumta'lim maktabining 6-«G» sinf o'quvchisi. U uch yoshidanoq bolalarga bag'ishlangan teleko'rsatuvlarda qatnashib kelmoqda. Ilk marotaba «Ertakchi bolajon» dasturida ishtirok etgan qahramonimiz o'zi haqida quyidagilarni so'zlab berdi:



– Meni «Aralash-quralash» ko'rsatuviga kasting asosida qabul qilishgan. Bugungi kunda ustozlarim Shohruh Umarov va Saodat Ibragimovadan aktyorlik san'ati sirlarini o'rganib kelmoqdaman. Avvaliga ushbu ko'rsatuvda ishirok etsam, maktabdagi darslarimga ulgura olmasam kerak, deya biroz ikkilangandim. Ammo yangilishgan ekanman. Mehribon o'qituvchilarim ko'magida barchasiga ulguryapman. Hattoki, yaqinda maktabimizda 6-sinflar o'rtasida bo'lib o'tgan «Bilimlar bellashuvi»da g'olib bo'lib, tuman bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdim.

Ko'pincha hazilkash, yolg'onchi, sho'x-shaddod qizlar siymosida chiqqanman. Ijro etayotgan



obrazlarim orqali tengdoshlarimga xushkayfiyat bag'ishlayotgan bo'lsam, bundan juda xursandman, – deydi Farangiz.



Aziz bolajonlar! Biz quvnoq, ziyrak va aqlli bu tengdoshingiz bilan bejizga 1-aprel – Xalqaro kulgi kunida suhbatlashmadik. Zero, qahramonimiz aytganidek, o'zingizdek sof va beg'ubor quvnoqlik, jo'shqinlik kayfiyati umringiz davomida sizni tark etmasin!

Nigora ABDUNAZAROVA

G'ALABA MUBORAK, NURAFSHONLIKLAR!

Yaqinda Toshkent viloyatining Nurafshon shahrida Nurafshon shahar birinchiligi sport musobaqasi bo'lib o'tdi.

Taekvando ITF bo'yicha uyushtirilgan mazkur musobaqada Bekobod, Chinoz, Zangiota, O'rtacha Chirchiq tumanlari va Toshkent shahridan kelgan 100 nafardan ortiq sportchilar bellashdi.



Umumjamoa hisobida Nurafshon BO'SM jamoasi g'oliblikni qo'lga kiritdi. Sport maktabi tarbiyalanuvchilari barcha yosh toifalarida birinchilardan bo'lishdi. Jumladan:

7–8-yoshlilar o'rtasidagi bahslarda 1-umumta'lim maktabi o'quvchilari Javohir Jumadullayev, Jasur Jumadullayev, Jahongir Esanboyevlar 1-o'rinni egallagan bo'lsa, 11–12 yoshli o'g'il bolalar o'rtasida Jahon kubogi chempioni 30-umumta'lim maktabi o'quvchisi Mirzaahmedov, 13–14 yoshlilar o'rtasidagi bellashuvlarda 10-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi Sardor Rasulov 1-o'rinni qo'lga kiritdi.

Sportchilarning muvaffaqiyatlarida Nurafshon BO'SM murabbiyi 3-DAN qora belbog' sohibi, uch karra jahon chempioni Muzaffar Zaitovning mehnatlari cheksiz.

Nurbek QIDIRALIYEV

BO'SH O'TIRMA, BOSH QOTIR!

«O'ZBEKISTON BO'YLAB» HAZIL TOPQIRLIK MASHQLARI

Aziz muxlis! Quyida ta'riflari bayon etilgan joy nomlarini topish bilan bilimingizni sinab ko'ring.


KROSSVORD

Bo'yiga: 1. She'riy janr bilan boshlanuvchi viloyat shahri. 2. O'rkachli jonivor nomidan boshlanuvchi suv ombori. 3. «Qum»li shahar. 4. Milliy taomga nomdosh daryo. 5. «Nish»li tuman. 11. «Daryo»li tuman. 12. «Tosh» bilan tugallanuvchi tog' oromgohi. 13. «Ot»li tumanlardan biri. 14. «Toy»dan boshlanuvchi maskan. 16. Gazlamaga adash tuman. 17. «Zar»li kentlardan biri. 18. «Uy» bilan boshlanuvchi tuman. 19. «Fara» bilan tugallanuvchi daryo.

Eniga: 2. «On» bilan tugallanuvchi pasttekistlik. 9. Hunarga ma'nodosh so'zga «i» harfi qo'shilishi bilan hosil bo'lgan tuman. 10. «Oro»li viloyat. 15. «Qish»li maskan. 20. «Aka»si bor shahar.

Diagonal bo'yicha o'ngga: 6. Hasharotga nomdosh tuman. 8. «Jon» bilan tugallanuvchi viloyat.

Diagonal bo'yicha chapga: 6. Saodat so'ziga ma'nodosh nomli viloyat shahri. 7. Sharq darvozasi ta'rifini



olgan kent.

«Zanjir» holida: 21. «Polvon»i bor neft-gaz koni. 22. «Shoh» bilan boshlanib, «don» bilan tugallanuvchi Xorazm viloyatidagi me'moriy yodgorlik majmuasi. 23. «Rabot»li tuman. 24. «Tom»i bor tuman. 25. «Ish»dan boshlanib «xon» bilan

tugallanuvchi tuman. 26. «Ariq»lari soniga ko'ra nomlangan maskan. 27. Rangiga ko'ra nom olgan «qum»li cho'l. 28. Nomi hisobsiz «buloq»lariga nisbatan qo'yilgan tuman.

TOPSHIRIQ: Shakl aylanalardagi raqamlar juftini (birinchisi so'z, ikkinchisi harf tartibini

anglatadi) krossvord javoblaridagi harflar bilan almashtirish orqali topshiriqni hal eting. So'ng, qatorlar bo'yicha o'qish bilan sharafiga haykal o'rnatilgan xalqimiz latifalari qahramonini bilib oling-chi!

Foziljon ORIPOV
hazillashib huzur qildi

Pazanda qizgal!




KO'KATLI SALAT

Aziz qizlarjon! Bahorgi ilikuzildi paytda momalarimiz-u onajonlarimiz bizga ko'k somsa, ko'k chuchvaralardan ko'proq iste'mol qilishimizni aytadilar. Negaligini bilasizmi?

Chunki inson organizmi qish bo'yi toliqib, vitaminlarga muhtoj bo'lib qoladi. Ilk bahorda esa yerdan unib chiqqan dorivor o'simliklar bizning jonimizga oro kiradi. O'tgan sonlarimizda sizga ko'katlar haqida ma'lumotlar bergan edik. Bugun ana shu ko'katlardan salat va chuchvara tayyorlashni o'rgatamiz.

Buning uchun bizga bir bog' ko'k piyoz, ikki oshqoshiq mayonez, ikki dona tuxum kerak bo'ladi.

Ko'katli salatni quyidagicha tayyorlaymiz: ko'k piyozni o'rtacha kattalikda to'g'rab, chuqurroq idishga solamiz. Ustiga qaynatilgan tuxum, so'ngra mayonez qo'shib aralashtiramiz. Mana, ko'katli salatimiz ham tayyor.



KO'K CHUCHVARA

Kerakli masalliqlar: ikki bog' ismaloq, ko'k piyoz, ikki cho'mich yog', ta'bga ko'ra tuz. **Xamiri uchun ikki kosa un, bitta tuxum, keragicha tuzli suv.**

Ish avvalida xamir qorishni boshlaymiz. Chuqur idishga avval un, tuxum, keyin namakob suvni solib, qattiqroq xamir qoramiz va uni tindirishga qo'yamiz.

Xamir tingunga qadar chuchvaraning qiymasini tayyorlaymiz. Ko'katlarni begona o'tlardan tozalab, yaxshilab yuvamiz va mayda qilib to'g'raymiz. Ko'k piyozni ham to'g'rab, har ikkisini yaxshilab aralashtiramiz. Aralashtirish jarayonida ismaloqning suvini siqib tashlash yodgingizdan ko'tarilmasin. Ana endi qiymaga ozroq tuz solib, ustini yopib qo'yamiz.

Xamirni katta qilib yoyib, kichik stakan yordamida dumaloqchalar kesib olamiz. Har bir xamirga kerak miqdorda qiyma solib,



chuchvara shaklida tugamiz. Qozonga o'simlik yog'ini solib qizdirdigach, olovni pasaytiramiz. So'ngra, tugilgan chuchvaralarni to'rt-besh donadan solib pishiramiz. Qizargach, qozondan olamiz.

Mana, ko'k chuchvaramiz ham tayyor. Endi uni issiqligida likopchalarga solib, oila a'zolaringizga tortiq qilishingiz mumkin.

Yoqimli ishtaha!

NARGIZA tayyorladi

Tong yulduzi
Muassis:
O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi vazirligi

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA
Gazeta O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan
o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Qahramon QURONBOYEV,
Dilshod KENJAYEV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALILOVA,
Ashurali JO'RAYEV
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Sayyora QODIROVA
Rassom
Feruzbek KAMOL o'g'li
Sahifalovchi-dizayner
Shaxobiddin
MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU bosma-xonasida chop etildi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga bosmaxona mas'ul.
Manzili: bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Indeks: 100011.
Obuna indeksi: 198.
www.tongyulduzi.uz
e-mail: tongyulduzi1929@umail.uz
telegram: tme/tongyulduz
Adadi - 10 352
Buyurtma - V 3267

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
Bahosi kelishilgan narxda.
Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi.
Topshirish vaqti - 18:00
Topshirildi - 18:00
Tel./faks: (99871) 244-63-08